

KICHIK TADBIRKORLIKNING AHOI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI

Ulug'bek Erkinovich Qurbanov

Yoshlar bilan ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari
Iqtisodiyot fakulteti O'zbekiston milliy universiteti
Toshkent shahar Olmazor tumani universitet ko'chasi 4.

E-mail: kurbanovulug5@gmail.com

Shamshiyev Abdumutal G'ulomjon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlari
1-bosqich talabasi Iqtisodiyot fakulteti
O'zbekiston milliy universiteti
Toshkent shahar Olmazor tumani universitet ko'chasi 4.

E-mail: abdumutal_170@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15376593>

Annotatsiya. Maqolada kichik tadbirkorlik faoliyatining nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotni rivojlantirishga ijobiy ta'siri asoslangan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni, ularning mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmidagi va jami bandlikdagi salmog'i tahlil qilingan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni hamda ularning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti-import hajmi va ulushining o'zgarish dinamikasi tadqiq etilgan. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatidagi o'ziga xos muammolar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, aholi daromadlari, potensial imkoniyatlar, infratuzulma.

THE ROLE OF SMALL BUSINESS IN INCREASING POPULATION INCOME

Abstract. The article covers the theoretical foundations and specific features of small business activities. The positive impact of small business on economic development is based on.

The number of operating small business entities, their share in the country's gross domestic product and total employment is analyzed. The number of newly established small enterprises and microfirms by type of economic activity, as well as the dynamics of changes in the volume and share of their export-import of products (works and services), are studied.

Specific problems in the activities of small business entities are described.

Keywords: entrepreneurship, small business, population income, potential opportunities, infrastructure.

РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА В УВЕЛИЧЕНИИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы и особенности деятельности малого бизнеса. Положительное влияние малого бизнеса на экономическое развитие общеизвестно.

Проанализировано количество действующих малых предприятий, их доля в валовом внутреннем продукте страны и общей занятости. Изучена динамика изменения количества вновь созданных малых предприятий и микрофирм по видам экономической деятельности, а также объем и доля их экспорта и импорта продукции (работ и услуг).

Описаны конкретные проблемы в деятельности малого бизнеса.

Ключевые слова: *предпринимательство, малый бизнес, доходы населения, потенциальные возможности, инфраструктура.*

Kirish

Dunyo mamlakatlarining ilg'or tajribasi shundan dalolat beradiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat ijtimoiy taraqqiyotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatib, millat iqtisodiyotining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat ijtimoiy taraqqiyotidagi alohida, o'ziga ahamiyati shundan iboratki, u aholi daromadlarining shakllanishida, mehnatga layoqatli kishilarni ish bilan ta'minlashda, qashshoqlik va nochorlikni bartaraf etishda, o'rta hol aholi qatlami saflarini kengaytirishda, haqiqiy ishbilarmonlarni ro'yobga chiqarish muammosini hal etishda aholining turli tuman tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talablarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. U insonning yaxshi va farovon turmush kechirishiga bo'lgan tabiiy intilishlari bilan uning o'zida mujassamlashgan potensial imkoniyatlari va salohiyati o'rtasida bevosita bog'liqlikni ta'minlash asosida barcha sotsial guruhlarni qanoatlantiradigan ijtimoiy muhit tug'diradi, shaxs, davlat va jamiyat iqtisodiy manfaatlarini uyg'unlashtiradi va, shu tariqa, jamiyatda ijtimoiy adolat va siyosiy barqarorlik o'rnatishga ko'maklashadi. Uning mamlakat iqtisodiy yuksalishidagi ahamiyati esa yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi va o'sish sur'atlarining jadallashuvida (mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda), bozorda raqobat muhitini kuchaytirishda, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini shakllantirishda, beqaror bozor tizimining moslashuvchanligini oshirishda, ilmiy-texnika taraqqiyotini yangi marralarga olib chiqishda, yirik korxonalarga kerakli mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish orqali ularning uzluksiz ishlashini ta'minlashda, yangi ish o'rinlarini yaratish, resuslardan unumli foydalanish, davlat budjeti daromadlarini ko'paytirish kabilarda o'z ifodasini topadi.

Tadbirkorlik haqida nazariyalar

Tadbirkorlikning tarixi uzoq o'tmishga borib taqalsada, mazkur tushuncha birinchi bor "XVIII asrda irlandiyalik iqtisodchi R.Kantilonning "Ocherk o prirode trgovle" (1975 y.) asarida "mulkdor" iborasi bilan bir ma'noda qo'llanilgan".¹ Uning fikricha: "tadbirkor – bu risk sharoitida harakat qiluvchi shaxs"; "tadbirkor – bu foyda olishi chegaralanmagan va tovarlarni arzon narxda sotib oladi-yu, lekin uni qimmatroq narxda sotadi, u tavakkalchi, taklifni talabga moslovchi shaxsdir".² "A.Smit tadbirkorni foyda olish uchun biron-bir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida tavakkal qilib ish ko'ruvchi mulkdor, deb ta'riflaydi. A.Marshall tadbirkorlarning tashkilotchilik qobiliyatiga e'tibor qaratadi va hisoblaydiki, har bir shaxs tadbirkor bo'la olmaydi, buning uchun o'ziga xos qobiliyat zarur bo'ladi"³ Keyinchalik bu g'oya nemis iqtisodchisi Y.Tyunen (1783-1850) asarlarida yanada rivojlantirildi. U tadbirkorlikning eng muhim xarakterli belgisi sifatida "yaratuvchanlik" ⁴ni ilgari suradi.

¹ Бусыгин А.В. Предпринимательство: Учебник. – 3-е изд. – М.: «Дело», 2001. – С. 72.

² Чеберко Е.Ф. Основы предпринимательской деятельности. История предпринимательства: учебник и практикум для СПО. – М.: «Юрайт», 2018. – С. 16.

³ Рубин Ю.Б. Основы предпринимательства. 3-е изд. перер. и доп. – М.: «Синергия», 2020. – С. 9-18.

⁴ https://studme.org/192830/ekonomika/teorii_predprinimatelstva_xviiiixix

Tadbirkorlikning O‘zbekistondagi holati

2024- yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda 242 701,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,2 % ga o‘tdi.⁵ Shuningdek, 2024-yilda kichik biznes subyektlarining YaIMdagi ulushi 54,3% ni tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilash maqsadida mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, sohada ortiqcha ma‘muriy tartib tamoyillarni qisqartirishga, tadbirkorlik subyektlariga qulay ishbilarmonlik hamda investitsiyaviy muhitni yaratishga qaratilgan huquqiy islohotlar izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan joriy yilning 19-martidagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 50-sonli farmoni ham tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida qabul qilingan.⁶

Farmonga ko‘ra, O‘zbekistonda 2025-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun kichik va o‘rta biznes subyektlarining yiriklashuvini rag‘batlantirish, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun soddalashgan ma‘muriy tartib-taomillarni joriy qilish, kichik va o‘rta biznes uchun infratuzilmani yaxshilash, yangi biznes yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligi sohasida biznes uchun sharoitlarni yaxshilash va farmon ijrosini tashkil etish, ta‘minlash va nazorat qilish kabi aniq maqsadlar belgilandi.

Xulosa

Kichik tadbirkorlik aholining daromadini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu soha ko‘plab odamlarga o‘z biznesini boshlash, oila byudjetini mustahkamlash va ish bilan ta‘minlanish imkonini beradi. Ayniqsa, hududlarda kichik tadbirkorlik orqali yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda, bu esa ishsizlikni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Tadbirkorlik rivojlansa, aholi daromadi ham barqaror bo‘ladi. Shu sababli, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash aholining yashash darajasini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi.

REFERENCES

1. Бусыгин А.В. Предпринимательство: Учебник. – 3-е изд. – М.: «Дело», 2001. – С. 72
2. Чеберко Е.Ф. Основы предпринимательской деятельности. История предпринимательства: учебник и практикум для СПО. – М.: «Юрайт», 2018. – С. 16.
3. Рубин Ю.Б. Основы предпринимательства. 3-е изд. перер. и доп. – М.: «Синергия», 2020. – С. 9-18.
4. https://studme.org/192830/ekonomika/teorii_predprinimatelstva_xviiiix
5. <https://www.stat.uz/uz/>
6. <https://lex.uz/docs/-7444738>

⁵ <https://www.stat.uz/uz/>

⁶ <https://lex.uz/docs/-7444738>